

**NAZAR ESHONQULNING “GIRYON” ROMANIDA ILGARI
SURILGAN G‘OYALARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI**

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Fizika fakulteti fizika
yo‘nalishi 3- bosqich talabasi **Tohirova Rumayso Furqat qizi**
miraculossakura@gmail.com*

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lgan Nazar Eshonqul qalamiga mansub “Giryon” romanining g‘oyaviy badiiy jihatlarini, qaxramonlar timsolida singdirilgan ramziy ma’nolari va bugungi kundagi ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi.*

KALIT SO‘ZLAR: *“Lison ut tayr ”, Tarso qiz. Shayx Sanon, Yaldo ibodatxonaga, syujet motivi, axloqiy sifatlarni, Roviye keksa olim, butunning qismi*

KIRISH. Adabiyotni psixologiya bilan bog‘lash va shu orqali hayotning falsafasini ochib berish XXI asr yozuvchilarining e’tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Dunyo miqyosida bo‘lgani kabi o‘zbek adabiyotida ham ramziylikka urg‘u berilgan yirik asarlar ko‘paymoqda. Shunday asarlardan biri Nazar Eshonqul qalamiga mansub “Giryon” romani hisoblanadi. Eski afsonaning zamonaviy talqini hisoblangan ushbu asarni anglash va tushinish uchun avvalo bu ikki afsonaning voqealarini esga olish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Alisher Navoiyning “Lison ut tayr ” asarida keltirilgan Shayx Sanon hikoyatida dinda yuqori martaba va hurmatga erishgan Shayx Sanon va nasroniy Tarso qiz hikoya qilinadi. Shayx Sanonning ishqini g‘ayridin tarso qizga tushadi. Uning ishqini yo‘lida aytgan barcha shartlarini bajaradi. Tarso qiz Shayxning ishqini qabul qiladi va bunday azoblarga duchor qilgani uchun uzr so‘rab xalok bo‘ladi. Nazar Eshonqulning “Giryon” romani ham aynan shu syujet motivi asosida qurilgan. Roviye keksa olim. U 27 yosh atrofida Tarso qiz bilan yozishmalar olib borish

natijasida, hayot, yashashning ma'nosi kabi savollarga javob topishga harakat qiladi. Tarso qiz yosh bo'lsada hayotda ko'p qiyinchiliklarni ko'rgan. Otasidan yoshlikda mehr ko'rmagan. Undan topgan ozorlari oqibatida yuragida jarohat qolgan. Onasi va nogiron ukasi bilan yashaydi. U bunday holga kelib qolishga o'zini aybdor sanaydi. Hayotning beshavqatligi va adolatsizligidan yozg'iradi. Hayotiga o'zini tushunadigan insonni uchratadi. Biroq u kutgani kutilgandek bo'lmagani uchun o'sha insonning umriga zomin bo'ladi. Oqibat ukasi bilan birga bu dunyoni tark etishga qaror qiladi. Asarni haqidagi ta'rifga "Men ming bo'lakka bo'lingan "Menman" degan satrlar mos tushadi. Biz, dunyodagi yaratilgan barcha insonlar, butunnnning bir parchasimiz. Olloh bizni yo'qlikdan bor qildi va o'zining sifatlarini jo qildi. Insonlar esa shuni anglab o'z yaratguvchisini tanib unga tomon talpinishlari zarur. Bu yo'lda ishq misoli ko'prik bo'ladi. Yaxshi axloqiy sifatlar natijasida komillikka erishish orqali haqqa qovushamiz. Ya'ni butunning bo'lagi sifatida butunning bo'lagi ekanimizni anglash orqali o'z butunimizga yetishamiz. Biroq aynan shu mohiyatni izlab topolmagan insonlar avvalo o'zlari bilan ichki nizo, o'zini yaratmish hilqatga isyon, noxaqlikka e'tiroz natijasida qism holida qismlarga bo'linib ketadi. Asarda aynan butunning parchasi ekanini anglamagan va buni qabul qilolmagan Tarzo qiz oxir-oqibat qismlarga bo'linib ketdi. Hayoti fojea bilan tugadi. Qismlarga bo'linish esa haqdan o'zini uzoqlashtiradi. Butunni qismdan ajratib qo'yish shaytonning asl maqsadi hisoblanadi. Dunyo deb atalmish o'tkinchi bekatda esa inson azal va abad yolg'iz va azob ichida yashashga mahkum. Bu butunga erishishning yagona sharti. Agar shu azoblarga chidasa haqning nazariga noil bo'ladi. Biroq Tarso qiz dunyoda xudoni izladi, undan haqsizliklar uchun izoh kutdi. Biroq mohiyatni anglay olmadi. Xudo uning o'zida ekanini va o'zi u tomonga borishi, bu uchun xudo belgilab bergan amallarni qilish kerakligini tushunmadi. Aksincha hudkushlik qilish xudoga yaqinlashtirmasligini anglamadi. Qolganlar butun sari intilayotganda sen qismlarga bo'linib undan uzoqlashishingdan fojealiroq narsa bo'lmasa kerak. To'g'ri asar yakunigacha bir zarra ham yorug'lik ko'rinmaydi. Asar insondagi barcha umidlarni yo'qqa chiqaradi. Axir oqni oq ekanligini ko'rsatish uchun qorani o'tkir ranglarda

tasvirlash zarur. Maqsad Tarso qiz kabi so'qir odamlarni ko'zini ochish hisoblanadi. Buning uchun asar oxirida tasvirlangani kabi "shahardagi barcha piyodalar yuradigan yo'laklarni taktil yo'laklarga almashtirish topshirig'i bo'ldi. Butun shahar yo'llarini shunday yo'lga almashtirib chiqamiz endi", deydi. Ya'ni qalb ko'zi ochilmagan insonlarni uyg'otish yozuvchining ham asarning ham asosiy maqsadi hisoblanadi.

Asarda ayrim juz'iy kamchiliklar ham uchraydi. Xususan, ortiqcha tautologiyalar mavjud. "Qishloq" bitta betda ko'p takror kelishi, "Shu bilan biz shu kuni boshqa yozishmadik", degan qaytariqlar, ortiqcha "men, men"lar o'quvchini toldirib qo'yadi. Qolaversa, Tarso qiz va olim o'rtasidagi yozishmalar vaqtida soat orqaga ketib qolganini hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Chunki suhbat uzilgan yo'q va davom etayotgan edi. Yana bir mantiqsizlikni Xudoni izlab yurgan Yaldo ibodatxonaga kelib, "Bu yer qayer?" deb so'rashida ko'rishimiz mumkin. Butun umr xudoni izlagan odamning ibodatxonani bilmasligi erish tuyuladi, albatta. Bu kabi kamchiliklar asarning asl mohiyatini anglashga to'siq bo'lmaydi. Asl kitobxon bu kabi mayda ikir-chikirlarga e'tibor bermaydi. Asarni asosiy mohiyatini ochib beruvchi falsafiy fikrlar bu kabi mayda unsurlarni yopib ketadi. Shu kabi falsafiy fikrlarga quyidagilar kiradi:

- "Eng yaxshi javob bu savolga savoldir".
- "Ishonch tubi yo'q quduqqa o'xshaydi"
- "Tan olish esa tog'dagi mayda toshlarning ko'cha boshlaganda parvo qilmaslikka o'xshaydi. "
- "Hayotning asl ma'nosi ham shu: zavq va uyg'unlikda. Ehtimol baxt ham shudir"
- "Bir umrlik baxtning o'zi bo'lmaydi, hayot bir umr go'zal bo'lmaydi. Odam aslida o'sha oniy lahzalar uchun yaxshaydi".
- "Men esa dunyoni axloq qutqaradi deb o'ylayman"

Ushbu satrlarning har birida teran ma'nolar yashiringan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chindan bugungi globallashgan asrimizga kelib axloqiy qadriyatlar dunyoni qutqarishi o'z ispodini topmoqda. O'zidagi axloqiy sifatlarni isloh qilmas

ekan insonga baxt deb atalmish o'sha oniy lahzalar bir umr kelmasligi mumkin. Barcha ongini o'tmishini taftish qilish orqali hayolida duch kelgan savollarga javob izlaydi. Oxir yakunda butunning qismi ekanini tushinib yetadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda adabiyot insonni o'zini va o'zligini anglashga yordam beradigan vosita hisoblanadi. Bu vositadan to'g'ri foydalanish insonni komillik sari yetaklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Eshonqul N. Giryon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2025. – B.320
2. Qosimov, B. Milliy uyg'onish va adabiyot. – Toshkent: Universitet, 2010.
3. Xolmirzayev, N. Adabiyot haqida mulohazalar. – Toshkent: Sharq, 2001.
4. Qodirov, N. O'zbek romani poetikasi. – Toshkent: Fan, 1992.
5. G'afurov, I. Zamonaviy adabiyot va jamiyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019.
6. Mamajonov, A. O'zbek romanida inson konsepsiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016